

MATNDA EMOTSIONALIK VA EKSPERESSIVLIKNI OSHIRUVCHI VOSITALAR

Normo'minov Sherzod To'ychiyevich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti.

Odinayeva Farangiz Zafar qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'naliishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14329528>

Annotatsiya. Mazkur maqolada emotsionallik va ekpressivlikning turli til vositalari yordamida ifodalanishiga doir fikr-mulohazalar keltiriladi. Maqolada matn tahlili va uning o'ziga xos jihatlari haqida gap boradi. Badiiy matn tarkibida birgina tovush yoki qo'shimchaning o'rni ham ahamiyatli ekani yozuvchi va shoirlarning asarlari orqali tahlil qilinib, asoslangan. Natijada, badiiy matnda ekspressivlik va emotsionallikni ta'minlovchi vositalar, jumladan, tovush, qo'shimcha, so'z va ularning o'ziga xos jihatlariga munosabat bildirilgan. Matnda emotsionalik va eksperessivlikni oshiruvchi vositalar. Tasviriy ifodalarning gapdagi uslubiyatiga to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: matn, emotsionallik, ekspressivlik, his-tuyg'u, ifodalash, tasvir, so'z, bo'yoqdorlik, vosita.

MEANS OF INCREASING EMOTIONALITY AND EXPRESSIVITY IN THE TEXT

Abstract. This article presents opinions on the expression of emotionality and expressiveness using various language tools. The article discusses text analysis and its specific aspects. The fact that even a single sound or suffix plays a significant role in the composition of a literary text is analyzed and substantiated through the works of writers and poets. As a result, the means of providing expressiveness and emotionality in a literary text, including sound, suffix, word, and their specific aspects, are discussed. The text discusses the means of enhancing emotionality and expressiveness. The methodology of figurative expressions in speech is discussed.

Keywords: text, emotionality, expressiveness, emotion, expression, image, word, colorfulness, tool.

СРЕДСТВА ПОВЫШЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОСТИ И ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ В ТЕКСТЕ

Аннотация. В данной статье представлены мнения о выражении эмоциональности и выразительности с помощью разных языковых средств. В статье говорится об анализе текста и его специфических аспектах. Анализируется и опирается на произведения писателей и поэтов тот факт, что важна роль отдельного звука или

суффикса в составе художественного текста. В результате в художественном тексте находят выражение средства, обеспечивающие выразительность и эмоциональность, в том числе звук, суффикс, слово и их специфические аспекты. Средства повышения эмоциональности и выразительности в тексте Речь пойдет о приеме образных выражений в предложении.

Ключевые слова: текст, эмоциональность, выразительность, чувство, экспрессия, образ, слово, картина, среда.

Emotsional-ekspressivlik tushunchasi bugungi zamonaviy tilshunoslikda hali ham markaziy tushunchalardan ekanligini yaxshi bilamiz. Ko‘plab shoir va yozuvchilarimizning asarlari misolida bu tushunchani bir necha tilshunoslik yo‘nalishlarida tadqiq qilingan. Dastlab ekspressivlik va emotsiyonallik haqida so‘z yuritsak.

Ekspressivlik (tilshunoslikda) –til birligining semantik-stilistik belgilari majmui; til birligining aloqa so‘zlashuv jarayonida so‘zlovchining nutq mazmuniga yoki nutq qaratilgan shaxsga nisbatan subyektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabatining ifoda vositasi bo‘la olishini ta’minlaydi.

Ekspressivlik tilning barcha sathlari birliklari uchun xosdir. Fonetik ekspressiv vositalar sifatida so‘z tarkibidagi undoshlardan birining qo‘shaloq holda yoki biror unlining cho‘ziq talaffuz etilishi, urg‘uning o‘rnini o‘zgartirish kabilarni ko‘rsatish mumkin. Morfologik vositalar sifatida keng miqyosdagi erkalash-kichraytish qo‘shimchalari (subyektiv baho ifodalovchi qo‘shimchalar)ni ko‘rsatish mumkin (oyijon, ukaginam va boshqalar). Leksik ekspressiv vositalarga o‘z haqiqiy ma’nosidan tashqari uslubiy (salbiy yoki ijobjiy) bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlar, undov so‘zlar va kuchaytiruv yuklamalari kiradi (masalan, „qiltiriq“ so‘zi ozg‘inlikni salbiy jihatdan ifodalaydi, baholaydi). Sintaktik sathda esa ekspressivlik odatdagisi so‘z tartibini o‘zgartirish, elliptik tuzilmalardan foydalanish, so‘z takrorlari orqali ta’milanadi. Aloqa so‘zlashuv jarayonida lisoniy ekspressiv vositalar bilan parallel ravishda, nutq ekspressivligini kuchaytirishga ko‘mak beruvchi ko‘plab paralingvistik (nolisoniy) vositalar (tovushning balandligi va tembri, nutq sur’ati, mimika, imo-ishora) ham qo‘llanadi. Ekspressivlik bevosita inson his-tuyg‘ularini ifodalash bilan bog‘liq bo‘lgani uchun uni emotsiyonallik (hissiyot, emotsiyani ifodalovchi so‘zlar va ulardan foydalanish)dan ajratib tasavvur etish qiyin. Hatto ba’zi tilshunoslarning asarlarida ekspressilik va emotsiyonallik kategoriyalari bir xil hodisa deb talqin qilinadi.

Emotsiya – shaxsning voqelikka o‘z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta’riflardan ko‘rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi. [Do’stmuhamedov, 2022]. His-tuyg‘u -bu insonlarga xos bo‘lgan o‘ziga xos tushunchadir. Tuyg‘ular o‘sha xalqning tuyg‘u va ob’ektiv narsalarga qiziqishlariga mos keladi. Bu emotsiyalar mavhum, mavhum bo‘lsa-da, u rang-barangdir. Masalan, quvonch, g‘azab, qayg‘u va baxt kabi hissiyotlar. Emotsionallikni insonning hayotiga tegishli bo‘lgan turli xil sharoitlardan hissiyotli ta’sirlanishga moyillik, kayfiyatdan ehtirosgacha – kuchi va sifati turlicha bo‘lgan emotsiyalarni kechirish layoqati, shuningdek, emotsiyalar kuchining tafakkur va hulq-atvorga ta’siri sifatida ta’riflash mumkin.

Amaliy hayotda emotsiyalar sifatida, odatda, insonning turli-tuman javob reaksiyalari – ehtirosning to‘lqinli portlashlaridan tortib, to kayfiyatning nozik tuslarini tushunamiz. Psixologiyada emotsiyalar deb kechinmalar shaklidagi inson hayotiy faoliyati uchun tashqi va ichki vaziyatlarni baholash va shaxsiy ahamiyatni aks ettiradigan psixik jarayonlarga aytildi [Izard, 2007]

Matnda qo‘llaniladigan har bitta vosita matn bo‘yoqdorligini va shu jumladan, emotsionallik va ekspressivlik ham matnda qo‘llanilgan har bitta so‘zni bo‘yoqdorligini oshirishga xizmat qiladi. Emotsionallik matnda muallif yoki suhbatdoshning his-tuyg‘ularini, ruhiy holatini ifodalashni, bu holat ko‘pincha matnni o‘qiydigan insonning his-tuyg‘ularini uyg‘otishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan: Baxtli, g‘amgin, qo‘rqinchli, umidsiz va shu kabi boshqa his-tuyg‘ularni ifodalash.

Matnda qo‘llanilgan har bir so‘z xoh yaxshi bo‘lsin xoh yomon insonda emotsionallik holatini ifodalaydi. Eksperessivlik matnning ifodali, ta’sirli va kuchli bo‘lishini anglatadi. Eksperessivlik orqali muallif o‘z fikrlarini yoki his-tuyg‘ularini aniq jonli va ta’sirli tarzda yetkazadi. Bunga kuchli obrazlar, tasvirlar o‘zgacha so‘zlar va stilistik vositalar yordamida erishiladi. Masalan: „Yomg‘ir ostida yolg‘iz qolganimda, yuragimda qandaydir og‘irlik paydo bo‘ldi” -bu jumladan emotsionallik va eksperessivlik birgalikda ishlatilgan. *Yolg‘izlik va o‘g‘irlilik* kabi tasvirlar o‘quvchi muallifning his-tuyg‘ularini sezishiga yordam beradi. Matnda qo‘llanilgan so‘zlarga qo‘sishma qo‘sish orqali ham emotsionallik va eksperessivlik holatini ko‘rish mumkin. Masalan: *bolaginam*, *erkatoyim*, *qo‘zichog‘im*, *arslonim* kabilarni misol qilishimiz mumkin.

Tasviriy ifodalar badiiy adabiyotda yoki tilda biror narsaning tasvirini yaratish voqeа yoki obrazni o‘quvchi yoki tinglovchining tasavvurida aniq va jonli shaklda ifodalash usulidir.

Bu turdagи ifodalar ko‘pincha real hayotni yoki abstrakt g‘oyalarini yanada jonli, rang-barang va tasavvurlarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Turli leksik vositalar tasviriy ifodalarni yaratishda keng qo‘llaniladi va ularning yordamida muallif o‘quvchini hayolida tasavvur qilish imkonini beradi. Tasviriy ifodalar gaplarga joziba va chuqurlik qo‘sadi, o‘quvchiga yoki tinglovchiga ma‘lumotni yanada ta‘sirchanroq yetkazishga yordam beradi. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsiyonal-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli, ko‘p ma’noli, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so‘zlar, chet va vulgar so‘zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi. Tilning grammatik tuzilmalari ham ekspressivlikni oshirishga yordam beradi. Masalan, so‘zlarning takrorlanishi, qo‘sishimchalar yoki aynan bir necha gaplarning birlashishi matnni hissiyroq qiladi. O‘xshatishlar, so‘zlarni kuchaytiruvchi shakllar, masalan, “eng yuksak”, “juda kuchli”, “asli” kabi so‘zlar ta’sirni kuchaytiradi.

Umuman olganda, emotsiyonallik va ekspressivlikni oshiruvchi vositalar matnni nafaqat tushunarli, balki ta‘sirli va unutilmas qilish uchun ishlatiladi. Bu vositalar yordamida muallif o‘quvchini fikr va his-tuyg‘ular orqali jalb qilib, uni chuqurroq o‘ylashga undaydi. Shuningdek, ularning to‘g‘ri ishlatilishi matnning ta‘sirchanligini va yoritilayotgan mavzuga nisbatan o‘quvchining hissiy munosabatini kuchaytiradi.

REFERENCES

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши.-Т: «Фан», 1983.
2. Дусмуҳамедова Ш.А., Алимбоева Ш.Т. Шахс хиссий емотсионал ҳолатлари психодиагностикаси ва психокоррексияси. “Маҳалла ва оила нашриёти”. Тошкент. 2022.
3. Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари.- Андижон, НДА. 1996.
4. Қиличов Э. Матннинг лингвистик таҳлили. –Бухоро, 2000
5. Худойбердиев Ж. Сўз – ўзга маъни ўзгадур.-Т., 1997
6. Изард К.Э. Психология эмоций. СПб.: Питер, 2007. С. 198.
7. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик асослари. Ўқув қўлланма. Т.: 2007.